"TASDIQLAYMAN"
"O'zmilliybank" AJ Toshkent viloyati
Bosh boshqarma boshlig'I v.b.

_____U.R.Shadiev

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT MILLIY BANKI AJ TOShKENT VILOYAT BOSH BOSHQARMASI

2 -sonli yig'ilish bayooni

Nurafshon shahri «06» fevral 2026 yil.

Yig'ilish raisi: U.R.Shadiev- O'zmilliybank AJ Toshkent viloyati Bosh boshqarma boshlig'i.

Qatnashdilar: Bosh boshqarma boshlig'i o'rinbosarlari, Korrupsiyani oldini olish va muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi Z.Po'latov, Boshqarma xodimlari, Nurafshon amaliyot Bank xizmatlari markazi xodimlari, **ZUM** orqali **BXM,BXO** xodimlari umumiy bo'lib – **274 nafar**.

Kun tartibi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy majlis va O'zbekiston halqiga qilgan murojaatnomasining muhim axamiyatiga ega bo'lgan qismini yetkazish.
2. Bankda korrupsiyani oldini olish va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik bo'yicha Bosh boshqarma boshlig'ining bank xodimlariga murojaatini yetkazish.
3. Bankda xavfsizlikni ta'minlash, tartib intizom boshqa masalalar bo'yicha xodimlarga yetkazish.

Seminarni Toshkent viloyati Bosh boshqarmasi boshlig'i U.Shadiev ochib, yig'ilish qatnashchilariga kun tartibidagi masalalarni bilan tanishtirdi.

O'z so'zida "O'zmilliybank" AJ va uning tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar dolzarbligi va bu borada xodimlarning javobgarligi, shaxsiy pozitsiyasi muhimligi xaqida aytib, xozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida bu kabi illatga qarshi kurash va uni oldini olishga qaratilgan kompleks tadbirlar olib borilayotganligi, bu davlat ichki siyosatining uzviy bir bo'lagi ekanligini ta'kidlab o'tdi.

Toshkent viloyati Bosh boshqarmasi boshlig'i U.Shadiev seminarning asosiy maqsadi — mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish, xizmat intizomini mustahkamlash va davlat rahbarining qat'iy siyosatini yana bir bor yetkazish.

Avvalo, ta'kidlab o'tish joizki, Prezidentimizning Oliy Majlisga murojaatida korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab berildi. Davlat rahbari ochiq va qat'iy ta'kidladilar:

"Qonun ustuvor bo'lmagan joyda taraqqiyot bo'lmaydi, korrupsiyaga yo'l qo'yilgan tizimda esa adolat bo'lmaydi."

2026 yilni Korrupsiyaga qarshi favqulodda e'lon qilinishi ham shundan dalolat beradiki, endilikda sustkashlik, bee'tiborlik yoki "eski uslubda ishlash"ga umuman o'rin qolmadi.

Bu qarorlar qog'ozda qolish uchun emas, balki har bir rahbar va xodim tomonidan so'zsiz ijro etilishi uchun qabul qilindi.

Ayniqsa, barchamizga saboq bo'ladigan holat — so'nggi vaqtlarda IIV tizimi, mahalliy davlat hokimiyati va boshqa ayrim rahbar xodimlarga nisbatan jinoyat ishlari qo'zg'atilganidir. Bu holatlar lavozim, maqom yoki tanish-bilish hech kimni javobgarlikdan ozod qilmasligini yaqqol ko'rsatdi.

Shundang so'ng, so'zni Korrupsiyani oldini olish va muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi Z.Po'latovga berdi.

Z.Po'latov Bankda korrupsiyani oldini olish va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik bo'yicha Bosh boshqarma boshlig'ining bank xodimlariga murojaatini o'qib yetkazdi.

Shu bilan birga Bank rahbari tomonidan aytib o'tilgan ma'lumotlar qo'shimcha qilib, bank xodimlariga "Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish to'g'risida"gi Qonun to'g'risida kerkli ma'lumotlar qayd etib o'tildi.

Shuningdek, Barcha bank xodimlarining 2026 yil uchun to'ldirilgan yillik ehtimoliy deklaratsiya bo'yicha tushuntirish berib o'tildi.

Seminar davomida Xavfsizlik, rejim va axborotni himoyalash bo'limi boshlig'i A.Ashurov so'zga chiqib, Bank xodimi degan nomni oqlash hamda qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'ymaslik, Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlardan ochiq xizmat xatlarida, maqolalarda, ma'ruzalarda foydalanmaslik, aloqa kanallari orqali bank siri haqida gapirmaslik, ma'lumotlarni himoyalash bo'yicha amaldagi qonunchilik va mazkur majburiyatnoma talablarini bajarish lozim.

Ish kuni davomida va yakunida bank xodimlari ish joyini tark etish vaqtida elektron kalitini kompyuterning USB-portida qoldirmasdan ularni ish joyidagi maxsus qulflanuvchi javlonlarga (seyf, tumba) qo'yish talab etiladi va elektron kalitlarni ish joyidan tashqariga olib chiqish, boshqa xodim tomonidan foydalanish qattiyan man qilingan. Mazkur xolatlarni buzgan xodimlarga nisbatan ishdan bo'shatishgacha bo'lgan intizomiy choralar ko'rilishi bo'yicha ta'kidlab o'tildi.

Yig'ilish ochiq tarzda, savol-javob, baxs-munozara tarzida o'tkazilib, yig'ilish qatnashchilari Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'zlarini qiziqtirgan savollarni berib, yetarlicha javoblar olishdi.

YIG'ILISh QARORI:

1. O'tkazilgan tadbirda "O'zmilliybank" AJ Toshkent viloyat Bosh boshqarmasi boshlig'i U.Shadiev, Xavfsizlik, rejim va axborotni himoyalash bo'limi boshlig'i A.Ashurov hamda Korrupsiyani oldini olish va muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi Z.Po'latovlar tomonidan takidlab o'tilgan ma'lumotlar ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xavfsizlik, rejim va axborotni himoyalash bo'limi boshlig'i A.Ashurov- xodimlarini ishga o'z vaqtida kelib ketishini va tartib intizomga rioya qilinishi bo'yicha nazoratga olsin.

3. Barcha BXM, BXO rahbarlari jamoada sog'lom muhitni saqlash, xodimlar o'rtasida korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga murosasizlikni shakllantirish choralari ko'rilsin.

4. Bankning barcha xodimlari bank ishini yuritishda amaldagi qonunchilik xujjatlariga to'la rioya qilinsin.

Bayonlashtiruvchi **Z.M.Pulatov**